



## YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISH – BUGUNGI KUNNING DOLZARB MUAMMOSI

A.Q.XUDOYBERDIYEV

O'zbekiston Respublikasi IIVning 1-sonli Toshkent litseyi Huquqiy  
va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası boshlig'i, yu.f.d., prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371286>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> August 2024

Accepted: 12<sup>th</sup> August 2024

Published: 14<sup>th</sup> August 2024

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*Hozirda dunyo ilmining jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o'zining strategik rejalarini belgilar ekan, kelajakda ularni amalga oshiruvchi yosh avlod har tomonlama rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma'naviyatini boyitishga alohida e'tibor bilan yondashadi. Bu esa davlatning dunyo hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini kuchaytiradi va yuksaltiradi.*

Bugungi kunda huquqiy tarbiya va ayniqsa yoshlarning huquqiy tarbiyasi mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, qonuniylikni ta'minlash, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash huquqiy tarbiyaning darajasi va samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Huquqiy tarbiya masalasi mamlakatimizning bundan keyingi taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib, unga favqulodda katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida mustahkamlangan davlat hamda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy tamoyillari demokratik normalar va ijtimoiy kafolatlarni qaror toptirishning zarur huquqiy zaminini yaratadi.

Huquqiy tarbiya murakkab va serqirra faoliyat tizimi hisoblanadi. «Tarbiya» atamasi kundalik hayotda kishilik jamiyatida ko'p marotaba takrorlanadigan ijtimoiy kategoriyadir. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chor-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi. Insoniyatning ko'p ming yillik taraqqiyoti natijasida, insonlarning bir jamiyatda uyushib yashashiga xizmat qiluvchi ijtimoiy tarbiya tizimi shakllandi.

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy ham «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» deb bejiz ta'kidlamagan. Chunki «huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat» kabi bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va bir-birini to'ldirib turuvchi ushbu mantiqiy izchillikda va ketma-ketlikda joylashgan o'xshash kategoriyalar jamiyat huquqiy tizimining holatidan darak beradi.

Ijtimoiy tarbiya tizimida tarbiyaning boshqa turlari singari huquqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning axloqiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy va boshqa turlari negizida shakllanadi va rivoj topadi. Bir so'z bilan aytganda, huquqiy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning barcha turlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Huquqiy tarbiyaning mohiyati huquq bilan tartibga solinuvchi sohada huquqiy ko'rsatma, munosabat, faoliyat motivlarini shakllantirishdan iborat. Huquqiy tarbiya yordamida insonda huquqqa qadriyat kabi munosabat vujudga keladi, qonunlarga rioya qilish odat tusini oladi, jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi hodisa sifatida davlatga nisbatan hurmat hissi shakllanadi, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashda davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik rivojlanadi.

Huquqiy tarbiya jarayoni insonni oliy qadriyat sifatida biladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, qonunga itoatkor, inson huquq va erkinliklarini qadrlaydigan va himoya qiladigan, chuqur huquqiy bilimlar sohibini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, huquqiy ongni tarbiyalash faqat huquq haqidagi bilimlarni kengaytirish, jamiyatning ijtimoiy qadriyati sifatida unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdangina iborat bo'lmay, huquqiy ko'nikmalarni, odatlarni tarbiyalash ham g'oyat muhimdir. Shu bilan birga, bu huquqiy ongni shakllantirishdan ham ancha murakkab vazifadir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shundan darak beradiki, aksariyat hollarda huquqbuzarlar bilan qonunlarga rioya qiluvchi fuqarolarning qonunlarni bilish darajasi qariyb bir xilligi ko'zga tashlanadi. Lekin huquqqa munosabat bilan huquqiy xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtirish bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Huquqiy tarbiya – tuzilishi jihatdan murakkab hodisa. Tadqiqotchilar huquqiy tarbiyaning uchta o'zaro bog'liq jihatlarini ajratib ko'rsatadilar: *birinchisi*, huquqiy bilimlar tizimini shakllantirish (eng yaqin maqsad); *ikkinchisi*, qat'iy ishonchni shakllantirish (oralik maqsad); *uchinchisi*, huquqiy, ijtimoiy faol xulq-atvor, odat va ko'nikmalarni shakllantirish<sup>1</sup>.

«Huquqiy tarbiya» kategoriyasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan va izohlar berilgan. «Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongiga ko'rsatiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sir jarayonidir»<sup>2</sup>.

Huquqiy tarbiya fuqarolarga huquqiy bilimni singdiruvchi muhim ijtimoiy vosita bo'lib, shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi, uyushgan, tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holda ta'sir ko'rsatishdir.

Umuman olganda, huquqiy tarbiya – davlat organlari, nodavlat tashkilotlari, mansabdor shaxslar va alohida shaxslar guruhining aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maxsus faoliyati hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya natijasida quyidagi murakkab vazifalar hal etiladi: *birinchidan*, ta'lim oluvchilarga o'zini va boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini baholashda, amaliy faoliyatda olingan huquqiy bilimlarni mustaqil tatbiq qilish ko'nikmalarini hosil qilish; *ikkinchidan*, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq faqat qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini shakllantirish; *uchinchidan*, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'lish fazilatini tarbiyalash imkonini beradi. Ana shundagina olingan huquqiy bilim har qanday sharoitda faqat qonunga monand harakat qilishga qat'iy odatlanish tizimini yaratishga, huquqbuzarlikka qarshi jadal kurash olib borishga xizmat qiladi<sup>3</sup>.

Huquqiy tarbiyani o'zlashtirish – bu jarayon bo'lib, u inson hayotining muayyan bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Aniq vaqt davomida tarbiyaning amalga oshirilmasligi, uning keyingi bosqichlarda yetkazilishini qiyinlashtiradi. Bu eng avvalo insonning yosh

<sup>1</sup> Қаранг: Головченко В.В. Эффективность правового воспитания. Понятие, критерии, методика измерения. –Киев, 1985. –С.26.

<sup>2</sup> Саидов А.Х., Таджиханов У.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2 – жилд. – Т., 2001. – 187-б.

<sup>3</sup> Қаранг: Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т., Азизов Н.П. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Т., 2009. –Б.

xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning o'qib o'rganish, tarbiya shaklidagi tashqi ta'sirlarga bo'lgan qobiliyatining pasayishi bilan bog'liqdir.

Tadqiqotchilarning fikricha, inson 30 yoshlariga qadar zarur tarbiyaga, shu jumladan huquqiy tarbiyaga ega bo'lmasa, hayotining keyingi davrlarida jamiyat undan talab qilayotgan yo'nalishda qayta tarbiyalashga ta'sirchanligi kamayadi. Shakllanib bo'lgan fikr, e'tiqod va dunyoqarashni o'zgartirish mushkul vazifaga aylanadi. Xuddi shu sababli 30-35 yoshdan katta bo'lgan shaxslarda huquqiy nigilizm ko'p uchraydi.

Aksincha, 30 yoshga qadar maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan shaxslar orasida esa, huquqni to'g'ri tushunish, unga amal qilish hissi ko'proq rivojlangan. Ular jamiyatdagi o'zgarishlar, jumladan, huquq sohasidagi o'zgarishlarga tezroq ko'nikma hosil qiladilar, qonunchilikdagi o'zgarishlarni anglab oladilar.

Aholi, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy tarbiyaning zamon talablariga mos ravishda yangi bosqichga ko'tarish zaruriyatini davrning o'zi talab qilmoqda. Huquqbuzarliklar tahlili, voyaga yetmaganlar va umuman yoshlar tomonidan odam o'ldirish, nomusga tegish, talonchilik, bosqinchilik, giyohvandlik kabi jinoyatlarning og'ir turlari sodir etilayotganligidan dalolat bermoqda. Huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyat sodir etayotgan yoshlarda qonunga itoatkorlik, huquqqa hurmat hissi shakllanishi o'rniga, "ommaviy madaniyat" targ'ib etayotgan xudbinlik, oson boyluk orttirish, o'zganing haqidan qo'rqmaslik, zo'ravonlik, ayshishrat, huzur-halovatda yashash hissi ustuvorlik qilayotganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa – 64 foizini tashkil etadi. Bu esa huquqiy tarbiya borasida huquqiy tarbiyani amalga oshiruvchi sub'ektlar faoliyatini tubdan qayta qurilishi, yoshlarni huquqiy tarbiyalash – faoliyatimizning bosh yo'nalishi sifatida belgilanishini talab qiladi.

Huquqiy tarbiya yoshlik davridan berilishi, har bir inson, uning tomonidan sodir etilgan huquqqa xilof xatti-harakat uchun yuridik javobgarlik kutayotganligini anglab yetishi kerak. Har bir inson jamiyatning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarni har kuni bajarishga majbur. Agarda bu jarayon jamiyat har bir a'zosining odat tarziga aylansa, mamlakat haqiqatan ham huquqiy davlatga aylanadi. Xuddi shuning uchun huquqni tarbiyaviy ta'sirining muhim yo'nalishi bo'lib, huqukiy va boshqa ijtimoiy normalar talablariga rioya etish odatini shakllantirilishida namoyon bo'ladi. Odatlar u yoki bu anglangan harakatlarning tizimli ravishda takrorlanishi natijasida shakllanadi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy vositalarni to'g'ri tanlash uchun shaxsning u yoki bu xislatlarini shakllantiruvchi omillarni: ijtimoiy holati, ta'lim tizimi, oilasi, jamoasi va boshqalarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash – demak, sanab o'tilgan barcha omillarni hisobga olishni anglatadi. Huquqning tarbiyaviy ta'siri shundan iboratki, u insonlar tomonidan ilg'or siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa qarashlarni o'zlashtirilishiga sharoit tug'diradi, jamiyat hayotining muhim prinsiplari va asosiy qoidalarini egallashga imkoniyat yaratadi. Shaxsni madaniy-huquqiy jihatdan tarbiyalash uning shaxsiy ongi darajasini xarakterlaydi, ruhiyati, dunyoqarashi va bahosini ifodalaydi hamda shaxsning huquqiy tartibot sohasidagi harakatini belgilaydi.